

ZAHM (SIFILIS) KASALLIGINGING DIAGNOSTIKASI: TO'LIQ TIBBIY YONDASHUV

O'zbekiston Respublikasi Quroli Kuchlar Harbiy Tibbiy Akademiyasi dermatologiya fani 2-bosqich ordinatori Kamalov Furqat Qodirovich

Kirish. Sifilis *Treponema pallidum* nomli spiroxe turkumiga mansub sababli yuzaga keluvchi, jinsiy yo'l bilan yuqadigan (JYYUK) surunkali yuqumli kasallikdir. Agar o'z vaqtida yordam yilga yordam davolanmasa, ko'p vaqt davomida inson organizmiga jiddiy zarar etkazishi. Diagnostika bu qurilmada qanday yordam beradi. Bemor zaxm tarqatadigan manbadir; u sog'lom kishi bilan o'pishganda, [jinsiy aloqa](#) qilganda yoki uning idish tovoqlaridan foydalanganda kasallik yuqadi. Keyingi yillarda qon quyish yo'li bilan ham (transfuzion) zaxm yuqish hollari ahyonda kuzatiladi. Oqish treponema teriga yoki shilliq pardaga kirgach, tez ko'payadi va [limfa tomirlari](#) orqali butun organizmga tarqaladi.

Zaxm bilan kasallangan odam avval o'zini mutlaqo sog'lom sezadi, 3—4 haftadan keyin (yashirin – [inkubatsion davr](#) tugagach) oqish treponemalar kirgan joyda zaxmning birinchi belgisi – og'rimaydigan birlamchi [sifiloma](#) (qattiq shankr) paydo bo'ladi. Bemor furunkulyoz, [o'pka yallig'lanishi](#), [angina](#), [so'lak](#) va boshqa kasalliklar sababli biror antibiotik bilan davolangan bo'lsa, zaxmning yashirin davri ancha cho'zilishi mumkin. Bunday hollarda antibiotikning tegishli dozasi treponemalarni yo'q qila olmay, ularning rivojlanishini bir oz to'xtatib qo'yadi, natijada yashirin davr ancha cho'zilib ketishidan tashqari, kasallik boshqacha kechishi mumkin.

Qattiq shankr paydo bo'lishi bilan zaxmning birinchi davri boshlanadi: yara (shankr)ga yaqin [limfa tugunlari](#) yallig'lanib shishadi, kattalashadi va bir oz qattiqlashadi; ko'pincha darmon quriydi, [isitma chiqadi](#), [bosh og'riydi](#), ayniqsa kechasi suyaklar qaqshab og'riydi, uyqusizlik kuzatiladi. Bu davr 6-9 hafta davom etadi va o'z vaqtida davolansa, ikkinchi davriga o'tib ketadi: [og'iz shilliq qavati](#), [jinsiy a'zolar](#), [qo'l](#), [oyoq](#) va badanda dog', tuguncha va hakozi ko'rinishida katta-kichik, rang-barang toshmalar (yiringli tugunchali) paydo bo'ladi; ko'pchilik bemorlarning sochi to'kila boshlaydi, [suyak](#), [bo'g'im](#), [muskul](#), [qon tomirlar](#), [yurak](#), [ko'z](#), [quloq](#), [ichki a'zolar](#) va [nerv sistemasi](#) zararlanishi mumkin.

Bu davrda bemor atrofdagilar uchun o'ta xavfli hisoblanadi. Ikkinchi davr boshida paydo bo'lgan toshma hech qanday davolansa ham, bir qancha vaqtdan keyin butunlay yo'qolib ketadi; bemor o'zini sog'lom sezib, hech narsadan shikoyat qilmaydi, lekin bu bemorning dardi aridi va u atrofdagilarga kasallik yuqtirmaydi, degan gap emas. Bu faqat zaxmning [latent](#) yoki yashirin davri, xolos. Bemor qunt bilan davolansa, sog'ayib ketadi.

Davolansa qo'ysa, kasallik to'satdan qaytalanib (retsdiv), ikkinchi davrning hamma belgilari namoyon bo'ladi va bir qancha vaqtdan keyin ular yana yo'qoladi. Bu jarayon bir necha marta takrorlanishi mumkin. Har galgi qaytalanish oldingisidan faqat kam toshma toshishi bilan farq qiladi. Bemor [vrach](#) aytganlarini qilmasa, [spirtli ichimliklar](#) iste'mol qilsa, taxminan 3-5 yildan keyin ikkinchi davr zaxmning oxirgi, uchinchi davriga o'tadi: olcha danagidek do'mboqchalar yoki tuxumdek, ba'zan undan kattaroq gummalar paydo bo'lib, to'qimalarni yemiradi, yaraga aylanadi va chandiqlanib bitadi. Kasallik oqibati gummalar o'rnatilgan joyga bog'liq.

[Miya](#), [yurak](#), tomir, [jigar](#) kabi hayot uchun muhim a'zolar zararlansa, bemor hayoti xavf ostida qoladi; yuz zararlangan bo'lsa, burun skeleti yemirilib, bemor badbashara, burni egarsimon bo'lib qoladi. Harakat, ko'ruv, [eshituv a'zolari](#), nerv sistemasining zararlanishi kishini umrbod mayib qilib qo'yadi.

Zaxm hamma vaqt ham uchinchi davrga o'tavermaydi. Bemor kasallikning birinchi davrida davolansa boshlasa, ikkinchi davri paydo bo'lmay tuzalib ketadi. Bemor vaqtida davolanmay, kasalligini o'tkazib yuborsa, zaxmning uchchala davri birin-ketin ro'y beradi. Zaxmning birinchi

davridayoq nerv sistemasi zararlanadi, lekin bu uchinchi davrda juda og'ir o'tadi – [orqamiya](#) so'xtasi va avj oluvchi falajga sabab bo'ladi; bunda yangi davo vositalari ham bemorga foyda bermay qo'yadi.

Xulosa. Zahm kasalligi yukori xavfga ega infeksiyon kasallik bo'lib, erta va yordam qo'yish jamiyat va individual sog'ligi uchun sizga kerak. Serologik testlarni tanlash va interpretatsiya qilish shifokorlar uchun professional kompetensiya bo'lib, davolash yaralarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

